

## “Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishga innovatsion yondashuv”

*Jovliyeva Nasiba Toshbo`riyevna*

*Angor pedagogika kolleji*

*Maxsus fan o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqola maktabgacha ta`lim tashkilotlarida kichik yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg`ulotlarini zamonaviy interfaol metodlarni qo`llagan holda tashkil etish jarayoniga bag`ishlanadi.

**Kalit so`zlar:** innovatsiya, interfaol, kichik yosh guruh, tabiat bilan tanishtirish, metod.

Hozirgi XXI “Zamonaviy axborot texnologiyalari asrida” insonlar bilim olishlari uchun samarali interfaol metodlarning o`rni beqiyos ekanligi hech birimizga sir emas. Interfaol metod o`z navbatida ta`lim tarbiyaning ob`ektiv qonuniyatlari va diagnostik maqsadlari asosida o`quv jarayonlari ta`lim-tarbiyaning mazmuni metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya`ni fan va texnika yangiliklarini o`zida mujassamlashtiradigan o`quv jarayonidir.

Maktabgacha ta`lim tashkilotida Tabiat bilan tanishtirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanib faoliyatlarni tashkil etish jarayoni maktabgacha ta`lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Quyida maktabgacha ta`lim tashkilotida faoliyatlar davomida interfaol metodlardan foydalanib jarayonni tashkil etish usullarini ko`rib chiqamiz.

### “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Bolalarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o`quv materialini o`rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan faoliyatdagi ijodiy ish hisoblanadi. Ushbu metod qo`llanilganda bola kichik guruhlarda ishlab, faoliyatda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo`lishga, bir-biridan o`rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo`ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo`llanilganda ta`lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo`ladi. Chunki ta`lim beruvchi bir vaqtning o`zida barcha bolalarni mashg`ulotga jalb eta oladi va baholay oladi.

MTTlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda diapozitivlar, diafilmlar, kinofilmlar va telefilmlardan foydalaniladi, O`quv ekrani bolalarda tabiat hodisalarining dinamikasi: o`simlik va hayvonlarning o`sishi hamda rivojlanishi kattalarning mehnati haqidagi tasavvurini shakllantiradi, qisqa muddat ichida uzoq, vaqt bo`lib o`tgan hodisalarni ko`rsatish imkonini yaratadi. Kinofilmlar bolalarda alohida emotsional munosabat, qiziqish uyg`otadi, bu esa bilimlarni yanada muvaffaqiyatliroq, egallanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o`quv kinosining eng samarali turi syujetli kinolentalar («Stol qayerdan paydo bo`ldi?», «Fillar haqida») va ocherkli kinolentalardir («Bir piyola sut», «Baliqchi hikoyasi»). Diapozitivlar va diafilmlar («Yilning turli fasllarida o`simliklar», «Tabiatni qo`riqlash», «O`rmon va unda yashovchilar», «Uy hayvonlari yilning turli fasllarida», «Quruqlikda va suv havzalarida yashaydigan hayvonlar» va boshqalar) tasvirning statikligiga ko`ra didaktik rasmlarga yaqin turadi. Ular xuddi rasmlar singari hodisalarni yirikroq ko`rsatish imkonini beradi. Bu bolalarning diqqatini tasvirda uzoq, muddat ushlab turishga yordam beradi. Kadrlar seriyasi hodisalarining o`zgarishi va rivojlanishini ko`rsatish imkonini yaratadi. Ulardan barcha yosh guruxlarida tabiatning u yoki bu hodisalari haqida boshlang`ich



tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek bu tasavvurlarni konkretlashtirish, kengaytirish va umumlashtirishda foydalaniladi. Syujetli diafilmlar, kinofilmlar va telefilmlar syujetining qiziqarliligi bilan bolalarda alohida qiziqish uygotadi. Bu bilimlarning aktiv idrok etilishiga yordam beradi, ekrandagi hodisalarga alohida munosabat uyg'otadi. Syujetli diofilm, kinofilm va telefilmlardan turli maqsadlarda: bilimlarni konkretlashtirish, u yoki bu hodisani xarakterlovchi muhimroq xususiyatlarni ajratib ko'rsatish, bilimlarni kengaytirish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirish maqsadlarida foydalaniladi. Filmni ko'rishga bolalarni oldindan tayyorlash lozim. Buning uchun film mazmuniga bog'liq suhbatlar, ekskursiyalar o'tkaziladi, kitoblarni o'qish tashkil etiladi. Bevosita filmni ko'rsatishdan oldin bolalar bilan yo'l-yo'riq beruvchi suhbat o'tqazilib, unda bolalarga filmni ko'rayotganlarida e'tibor berishlari lozim bo'lgan topshiriqlar beriladi. Film birinchi marta ko'rilgandan so'ng mazmunan juda muhim momentlarni ajratib ko'rsatishga yo'llangan suhbat o'tkaziladi. Film ikkinchi marta ko'rilgandan so'ng bolalar film mazmunini qanchalik o'zlashtirganliklarini tekshirib ko'rish lozim. Shu maqsadda bolalar bilan tekshiruvchi suhbatlar o'tkaziladi, ko'rilgan film mavzusida rasm chiziladi. Mana shu usulda o'tkazilgan ish bolalarning bilimlarini sistemalashtirish va boyitish imkonini beradi. Maktabgacha kichik yoshda ovozsiz filmlardan foydalangan ma'qul. Ularning mazmunini tarbiyachi aytib turadi. Bu filmdagi aynan shu gurux bolalar uchun asosiy narsani ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Avval diapozitiv va diafilmlardan foydalaniladi. Ularni ko'rishni sekinlashtirilgan sur'atda tashkil etish, ba'zi kadrlarni qayta ko'rsatish, eng muhimlarini tanlab ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Diapozitiv, diafilmlarni ko'rish asta-sekin bolalarni ovozli kinofilmlarni ko'rishga tayyorlaydi. Film ko'rilgandan so'ng kichikintoylar bilan maxsus suhbat o'tkazish tavsiya etilmaydi. Hozirgi kunda turli xil multimedia ta'lim-tarbiya vositalarini ishlab chiqish va ularni tatbiq etish jadal rivojlanyapti.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdan asosiy maqsad bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirish, estetik didini o'stirish, maktabga tayyorlash, ruhiyati shaxsiy qobilyatlarini o'stirish, ehtiyot va intilish umuminsoniy va milliy qadryatlarini hisobga olgan holda ularni maktab ta'limiga puhta tayyorlashdan iboratdir. Bundan tashqari tabiat bilan tanishish orqali bolada Ona yerga muhabbat Vatanni sevish uni ardoqlash kabi ijobiy qobilyatlar rivojlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilk qadam davlat o'quv dasturi Toshkent 2018
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat standartlari Toshkent 2020
3. Hasanboyev O.U : Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016.- 128 b
4. Internet saytlari
  - [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
  - [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
  - [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
  - [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

